



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

2022 y. "07" "aprel" _____

N^o _____ 01-10/85 _____

Davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qarori 2-bandiga muvofiq, aholiga o'zining turmushini yaxshilash, kasb-hunar va biznes bilan shug'ullanish orqali daromad topish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlarini o'rgatishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 8-oktabrdagi №31-03-02-32/797-son, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021-yil 25-noyabrdagi 03-09/7504-son, Adliya vazirligining 2021-yil 29-noyabrdagi 9/4-6/20111-son va Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2021-yil 2-dekabrdagi 1269/03-17-son xatlariga asosan davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq hal etilishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida aholiga o'zining turmushini yaxshilash, kasb-hunar va biznes bilan shug'ullanish orqali daromad topish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlarini o'rgatishga qaratilgan yosh tadbirkorlar uchun "kouching" darslik tayyorlash yuzasidan davlat ijtimoiy buyurtmasi asosidagi qiymati 600 mln. so'm bo'lgan tanlov maxsus axborot portali orqali e'lon qilinsin.

3. Yosh tadbirkorlar uchun "kouching" darslik tayyorlash bo'yicha asosiy texnik talablar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Yosh tadbirkorlar uchun "kouching" darslik tayyorlash bo'yicha loyihalar budjeti 2-ilovadagi sarf-xarajatlar smetasi talablariga muvofiq bo'lishi belgilansin.

4. Belgilansinki, tanlov g'olibiga davlat ijtimoiy buyurtmasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan maqsadli mablag'lar hisobidan ajratiladi.

5. Yoshlar ishlari agentligi:

a) Ishlar boshqarmasi (M.Tabibullayev)ga tanlov hujjatlarini tayyorlash va belgilangan tartibda maxsus axborot portalida tanlov e'lonini joylashtirish;

b) Moliya-iqtisod boshqarmasi bosh hisobchisi (J.Rasulov)ga tanlovda g'olib bo'ladigan loyihaning xarajatlar smetasidagi pul mablag'larni tegishli tartibda o'tkazish;

d) Axborot-tahlil va ijro nazorati boshqarmasi (S.Jo'rayev)ga:

Yuridik byuro (A.Xalikov) bilan birgalikda tanlov g'olibi bilan tuziladigan shartnomani tayyorlash va imzoga kiritish;

shartnoma asosida ishlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish hamda tegishli tartibda ishlarni qabul qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktorining o'rinbosari J.Xodjayev zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Sa'dullayev

Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2022-yil "4"-aprel dagi
01-10/85 -son buyrug'iga
1-ilova

**Yosh tadbirkorlar uchun "kouching" darslik tayyorlash
bo'yicha asosiy texnik talablar
RO'YXATI**

Darslik bichimi: 60x84 1/8

Muqova rangi: 4+0

Matn rangi: 4+4

Darslik hajmi: 200 bet.

Janr: o'quv-qo'llanma.

Darslik tili: lotin yozuvi (alifbosi)ga asoslangan o'zbek tili.

Darslik matnini yaratish – tuzish, yozish, to'plash, syujetli audio material va elektron kitob tayyorlash, kitob haqida podkast, targ'ibot-tashviqot va taqdimotlarini o'tkazish, muallif, tuzuvchi gonorari, nashrga tayyorlash (sahifalash, muqova yaratish, muharrirlik, musahhihlik ishi, fotograf, rassom ishi), nashriyot grifi, ISBN, UQK, KBK raqamlarini olish.

Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan mahsulotda mualliflik huquqlari buzilgan holatda, qayta tahrir qilish talab etiladi. Buyurtmachining mazkur talabi bajarilmaganda, ijtimoiy buyurtma mahsuloti Buyurtmachi tomonidan qabul qilinmaydi.

Ishtirokchidan darslik mahsulotining tegishli qismida buyurtmachining logotipini joylashtirishi talab etiladi.

Shu bilan birgalikda ishlab chiqilgan darslik ishlab chiquvchining mualliflik ijodiy mulki hisoblanib, tasdiqdan o'tgan taqdirda erkin tarqatish va foydalanish imkoniyatiga ega.

Darslik nomi hamda darslikdagi har bir mavzu va uning yoritilishi buyurtmachi bilan tegishli tartibda kelishiladi.



Yoshlar ishlari agentligi direktorining
"- aprel" dagi
son buyrug'iga
2-ilova

**Yosh tadbirkorlar uchun "kouching" darslik tayyorlash bo'yicha loyihalar
budjeti uchun sarf-xarajatlar smetasi talablari**

T/r	Xarajat nomi	Miqdori (so'mda)*
1.	Darslik tuzish, yozish, to'plash, syujetli audio material va elektron kitob tayyorlash, kitob haqida podkast, targ'ibot-tashviqot va taqdimotlarini o'tkazish, muallif, tuzuvchi gonorari, nashrga tayyorlash (sahifalash, muqova yaratish, muharrirlik, musahhihlik ishi, fotograf, rassom ishi), nashriyot grifi, ISBN, UQK, KBK raqamlarini olish.	600 000 000
	Jami:	600 000 000

Izoh: Xarajatlar belgilangan summadan oshmasligi shart.



08.10.2021 й.
31-03-02-32/797

**Ўзбекистон Республикаси
Ёшлар ишлари агентлиги**

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги Ғазначилиги, Сизнинг 2021 йил 27 сентябрдаги 3-19-21-2364-сон мурожаатингизни куриб чиқиб, қуйидагиларни маълум қилади.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари туғрисида”ги УРҚ-684-сонли Қонуни давлат харидлари соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш мақсадида қабул қилинган бўлиб, унда харид қилиш тартиб-таомилларини амалга оширишнинг асосий принциплари, турлари, тартиби ва мезонлари белгиланган.

Қонуннинг амал қилиш соҳаси:

давлат буюртмачиларининг хужалик фаолиятини юритиш чоғида амалга ошириладиган давлат харидларига;

Ўзбекистон Республикасининг бюджет тизими бюджетларининг, шунингдек бюджет ташкилотларида ташкил этилган бошқа жамғармаларнинг маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган давлат харидларига;

агар молиявий, гуманитар ёки хайрия ёрдамни тақдим этиш ҳамда бошқа бегараз, қайтарилмайдиган тарзда молиялаштириш шартларида товарларни (ишларни, хизматларни) харид қилишнинг бошқача тартиби белгиланмаган бўлса, молиявий, гуманитар ёки хайрия ёрдами ҳисобидан ҳамда бошқа бегараз, қайтарилмайдиган тарзда молиялаштириладиган давлат харидларига нисбатан татбиқ этилиши белгиланган.

Ушбу Қонуннинг 19-моддасига мувофиқ давлат буюртмачилари деганда қуйидагилар тушунилади:

бюджет буюртмачилари - давлат органлари ва муассасалари, бюджет ташкилотлари, харид қилиш тартиб-таомилларини амалга ошириш учун йуналтириладиган бюджет маблағларини олувчилар, давлат мақсадли жамғармалари;

корпоратив буюртмачилар - давлат корхоналари, устав фондида (устав капиталида) давлат улуши 50 фоиз ва ундан ортиқ бўлган юридик шахслар ҳамда устав фондининг (устав капиталининг) 50 фоизи ва ундан ортиғи 50 фоиз ва ундан ортиқ миқдорда давлат улушига эга юридик шахсга тегишли бўлган юридик шахслар.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: WC05213825

Мазкур Қонуннинг 84-моддасида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

хукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштириши;

давлат бошқаруви органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта куриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминлаши белгиланган.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 апрелдаги “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар туғрисида”ги УРҚ-682-сон Қонуннинг 18-моддасида:

норматив-ҳуқуқий ҳужжат ўзига нисбатан юқорироқ юридик кучга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ бўлиши кераклиги;

норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар уртасида тафовутлар бўлган тақдирда юқорироқ юридик кучга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжат қўлланилиши;

тенг юридик кучга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар уртасида тафовутлар бўлган тақдирда, кейинроқ қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжат қоидалари амал қилиши белгиланган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, мурожаатингизда келтирилган масалалар “Давлат харидлари туғрисида”ги Қонун талабларига мувофиқ ҳал этилиши лозимлигини маълум қиламиз.

**Ғазначилик бошлигининг
биринчи ўринбосари**



М.Атаджанов



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
MINISTRY OF JUSTICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100000, Toshkent shahri, Savilgoh ko'chasi, 5-uy tel: (998 71) 207 04 43.
www.minjust.uz, pochta: info@adliya.uz, minjust@sexat.uz



2021-yil 29-noyabr 9/4-6/20111-son

O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

19.10.2021-yildagi
3-19-21-2595-son xatga

Adliya vazirligi tomonidan Sizing davlat ijtimoiy buyurtmalarini moliyalashtirish masalasida yo'llagan xatingiz ko'rib chiqildi.

Byudjet kodeksining 29-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan **shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazadi**.

Ushbu Kodeksning 70 va 71-moddalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrimng **byudjetlaridan davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida** nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari amalga oshiriladi.

“Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunning 2 va 4-moddalariga muvofiq, mazkur Qonunning amal qilishi O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarining, shuningdek byudjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Davlat xaridlari – davlat buyurtmachilarining **tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni**.

“Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonunning 21-moddasiga asosan, davlat ijtimoiy buyurtmasi davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti yoki fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o'rtasida **shartnoma tuzish yo'li bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir davlat topshirig'idan iborat bo'ladi**.

Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali, shuningdek **davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi**.

Davlat boshqaruvi organlari sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga **byudjetdan tashqari mablag'lar** hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasi berishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organi va tanlovda g'olib deb topilgan nodavlat notijorat tashkiloti yoki fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o'rtasida **shartnoma tuziladi**.

Byudjet kodeksining 122-moddasiga asosan, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.


"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasiga muvofiq, davlat buyurtmachilaridan biri sifatida byudjet buyurtmachilari – davlat organlari va muassasalari, byudjet tashkilotlari, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan byudjet mablag'larini oluvchilar, davlat maqsadli jamg'armalari, shuningdek, byudjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg'armalar tushuniladi.

Mazkur Qonunning 27-moddasiga ko'ra, byudjet buyurtmachilarining davlat xaridlari bo'yicha to'lovlari maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish va ular to'g'risida axborot joylashtirish jarayonlari tugaganidan keyin Moliya vazirligining G'aznachiligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilmadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatida **42 turdagi** tovarlar (ish, xizmatlar) keltirilgan bo'lib, unda davlat ijtimoiy buyurtmalari berishga oid munosabatlar nazarda tutilmagan.

Yuqoridagilarga ko'ra, davlat organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish davlat xaridlari tartib-taomili doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Vazir o'rinbosari



M. Ikramov

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH AGENTLIGI**



**АГЕНТСТВО ПО
ПРОТИВОДЕЙСТВИЮ КОРРУПЦИИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

100070, Toshkent shahar, Sh.Rustaveli ko'chasi, 8^A
Tel.: (998 71) 202 04 02 (431),
el. pochta: info@anticorruption.uz, antikor@exat.uz

100070, город Ташкент, улица Ш.Руставели, 8^A
Тел: (998 71) 202 04 02 (431),
эл. почта: info@anticorruption.uz, antikor@exat.uz

**25.11.2021 й.
03-09/7504**

**Ўзбекистон Республикаси
Ёшлар ишлари агентлиги**

Коррупцияга қарши курашиш агентлиги Сизнинг 2021 йил 19 ноябрдаги 2-19-21-2890-сонли хатингиз куриб чиқилди.

«Рақобат туғрисида»ги Қонуннинг 9-моддасида Ўзбекистон Республикасининг Хусусийлаштирилган корхоналарга кумаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси (*ҳозирда Монополияга қарши курашиш қўмитаси*) ҳамда унинг ҳудудий органлари товар ва молия бозорларида **рақобат соҳасидаги ваколатли орган** эканлиги кўрсатилган.

Шунингдек, мазкур моддада Монополияга қарши курашиш қўмитаси товар ва молия бозорларидаги рақобат соҳасидаги, хўжалик юритувчи субъектларнинг рақобатга қарши ҳаракатларини, инсофсиз рақобатини чеклаш ва уларнинг олдини олишга ҳамда давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ғайриқонуний ҳаракатларига йўл қўймасликка қаратилган давлат сиёсатини амалга ошираши белгиланган.

Юқоридагиларга биноан, давлат ижтимоий буюртмаси бўйича танлов эълонларига иштирокчиларга қўшимча талаблар киритиш масаласида Монополияга қарши курашиш қўмитасига мурожаат қилишингиз мақсадга мувофиқ эканлиги маълум қилинади.

Директор уринбосари



Т. Хайдаров



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MONOPOLIYAGA QARSHI KURASHISH QO'MITASI
ANTIMONOPOLY COMMITTEE
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100128, Toshkent sh., Labzak ko'chasi, 3-uy. Tel.: (998 71) 207-47-00, Tel.: (998 71) 241-92-04
e-mail: info@antimon.gov.uz, e-xat: antimon@exat.uz, www.antimon.gov.uz



009368

" 02 " 12 20 21 y. № 1269/03-17

**O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi**

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi sizning 2021 yil 19 noyabrdagi 2-19-21-2890-sonli xatingizni ko'rib chiqib quyidagilarni ma'lum qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni davlat buyurtmachilarining xo'jalik faoliyatini yuritish chog'ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga taalluqli ekanligi belgilangan.

Shunga ko'ra, sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ijtimoiy buyurtma berish xo'jalik faoliyatini yuritish chog'ida amalga oshiriladigan davlat xarid hisoblanishi yoki hisoblanmasligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan tushuntirish olishingiz maqsadga muvofiq ekanligi ma'lum qilinadi.

Rais o'rinbosari

F. Karabayev